O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo’lyozma xuquqida

UDK 512.83

G’oymatova Dilafruz

ЙИРИК МАСШТАБЛИ СИСТЕМАЛАР АБСОЛЮТ ТУРҒУНЛИГИНI TEKSHIRISH

5A130102- “Differentsial tenglamalar ” mutaxasisligi bo’yicha
magistr akademik darajasini olish
uchun magistrlik dissertatsiyasi

Ilmiy raxbar :
Fizika-matematika fanlari nomzodi

Andijon-2014

MUNDARAJA

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ma’lumki xayot xarakatdan iborat, shuning uchun xarakat bilan bog’liq bo’lgan masalalarni o’rganish va xal qilish katta axamiyatga ega.Bundan tashqari ko’plab murakkab jarayonlar yirik masshtabli sistemalar orqali modellashtiriladi .Bundan qaralayotgan mavzuning dolzarbligi kelib chiqadi.

Ishning maqsadi: Yirik masshtabli sistemalar turg’unligining umumiy masalasini va Lyapunov matritsa funktsiyasi usulini o’rganib , ba’zi yirik masshtabli sistemalar , Giroskopik stablizatsiya xarakatidagi orbital observatoriya turg`unligining , Neyron to`rlar turg`unligining yetarli shartlarini xosil qilish.

Tadqiqot usuli: Yirik masshtabli sistemalarni dekompozitsiya qilish usuli, Lyapunovning to’g’ri usuli , Lyapunovning matritsa funktsiyasi usuli.

Ilmiy yangiliklar: Dissertatsiyada quyidagi natijalar olindi:

1)yirik masshtabli sistemalar vertikal va gorizontal o’qlarga nisbatan dekompozitsiya qilindi ;

2)yirik masshtabli sistemalar o’zaro muvozanatlashuvchi qism sistemalarga nisbatan dekompozitsiya qilindi;

3) giroskopik stablizatsiya xarakatidagi orbital observatoriya turg`unligining etarli shartlari xosil qilindi ;

4) neyron to`rlar turg`unligining etarli shartlari xosil qilindi;

Amaliy va nazariy ahamiyati: Ишнинг назарий жихатдан ахамияти шундан иборатки , унда олинган назарий натижалар янги бўлиб , диссертациядан илмий изланишлар олиб боришда , шу ва бунга яқинроқ бўлган мавзулар бўйича махсус курслар ўқишда фойдаланиш мумкин.

Ishning aprobatsiyasi: **E'lon qilingan ishlari**: Mavzu bo'yicha 2013 yil Namangan shahrida bo'lib o'tgan respublika konferentsiyasida, 2013 yil Andijon shahrida bo'lib o'tgan hududiy konferentsiyada va matematika kafedrasi seminarlarida maruzalar qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi: Dissrtatsiya kirish, 3 ta bob, hulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tuzilgan bo'lib,umumiy hajmi 70 sahifadan iborat.

Dissertatsiyaning qisqacha mazmuni. Ushbu magistlik dissertatsiyasining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, tadqiqot usullari, ilmiy yangiliklari, amaliy va nazariy ahamiyati, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi va qisqacha mazmuni bayon qilingan.

1 -bob yirik macshtabli sistemalar turg'unligining umumiy masalasini o^rganishga bg^ishlangan bo^lib , unda masalaning qo'yilishi ,yirik macshtabli sistemalarning dekompozisiyasi,Lyapunovning matrisa funksiyasi usuli qarab chiqilgan.

Ko'plab jarayonlar yirik mastabli sistemalar (Y.M.S.) orqali modellashtiriladi. Bunday sistemalarning xarakterli belgilari quyidagilardir:

1. Ko'p o'lchovlilik;

2.Sistema strukturasining ko'p karraliligi (to'rlar, daraxtlar,ierarxik strukturalar va boshqalar);

3.Sistema elementlarining ko'p bog'lamliligi (qism sistemalar orasidagi bitta darajadagi va xar xil darajali ierarxiyalar orasidagi bog'lanishlar);

4.Elementlari tabiatining ko'pxilliligi (mashinalar, avtomatlar, robotlar, odam-operatorlar);

5.Sistema xolati va tarkibi o'zgarishining ko'pkarraliligi (sistema strukturasi, tarkibi va bog'lanishlarning o'zgaruvchanligi);

6.Sistemaning ko'p kriteriyaliligi (qism sistemalar uchun har-xil lokal kriteriyalar va to'la sistema uchun global kriteriyalar, ularning qarama-qarshililigi).

7.Sistema yoki uning elementlari tabiatiga xos bo'lgan ba'zi bir xususiy belgilar.

Bu belgilar sistema dinamik xossalarini (turg'unlik, boshqaruvchanlik, kuzatuvchanlik, optimallik) o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. SHuning uchun ko'plab mutaxassis olimlar tomonidan bir qancha usullar yaratildi. Jumladan, Lyapunov vektor funktsiyasi usuli , mini – maks usuli , Lyapunov matritsa – funktsiyasi usuli va boshqalar.

Ma'lumki, Lyapunov funktsiyasini qurishning umumiy algaritmi mavjud bo'lmaganligi uchun yuqoridagi xarakterli belgilarga ega bo'lgan sistemalar turg'unligini taxlili qilishda xosil bo'ladigan qiyinchiliklar Lyapunovning to'g'ri usulini effektiv ravishda qo'llash imkonini bermaydi.

Shuning uchun qaralayotgan sistemani soddalashtirish yoki boshqa sistema bilan almashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha yo'nalishlar paydo bo'lib, bularda turg'unlik (turg'unmaslik) masalasi bevosita berilgan sistemani tekshirish yo'li bilan emas, balki bu oralik sistemalarni tekshirish yo'li bilan xal etiladi.

Yirik masshtabli sistemalar turg'unligining umumiy masalasi quyidagicha ikki xil ko'rinishda qo'yiladi.

A muammo: Y.M.S. o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalarga dekompazitsiya qilingan (ajratilgan) bo'lsin. Shunday shartlarni aniqlashimiz kerakki, bularda sistemaning Lyapunov bo'yicha turg'unligi o'zaro bog'liq bo'lmagan qism sistemalarning turg'unligidan va ular orasidagi bog'lanishlarning xossalaridan kelib chiqsin. Boshqacha aytganda, masalani bunday qo'yilishida, avval Y.M.S. ni tashkil qiluvchi har bir erkin qism sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tuzilib, ularni turg'unligi (turg'unmasligi)ning yetarli shartlari xosil qilinadi. So'ngra bu qism sistemalar orasidagi bog'lanishlarning xossalaridan va erki n qism sistemalar turg'unligining yetarli shartlaridan foydalanib, berilgan sistema turg'unligining yetarli shartlari xosil qilinadi.

B muammo: Y.M.S. o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalarga dekompazitsiya qilingan (ajratilgan) bo'lsin. Sistema tartibi pasayishini taminlaydigan shunday shartlarni aniqlashimiz kerakki, unda qaralayotgan sistemaning turg'unligi o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalar xossalaridan kelib chiqib, bunda erkin qism sistemalar turg'unligi xaqidagi ma'lumotlardan foydalanilmaydi. Boshqacha aytganda masalaning bunday qo'yilishida, har bir qism sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tanlanib, ular yordamida qaralayotgan sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tuziladi va qaralayotgan sistema turg'unligining yetarli shartlari xosil qilinadi.

Bu ko'rsatilgan muammolar Y.M.S. turg'unligini tekshirish bilan shug'ulanuvchi mutaxassislar uchun bosh yo'nalishlarni aniqlab berdi. Ularni xal etish yo'lida bir qancha matematik usullar yaratildi yoki rivojlantirildi. Jumladan, Lyapunovning vektor-funktsiyasi usuli, vektorli normalar usuli, minimaksli usul, Lyapunov matritsa funktsiyasi usuli va boshqalar.

Lyapunovdan keyin olimlar (N.G.Chetaev, I.G.Malkin, N.N.Krasovskiy, V.M.Matrosov, A.A.Martinyuk va boshqalar) tomonidan Lyapunovning to`g`ri usuli rivojlantirildi va takomillashtirildi. Jumladan, V.M.Matrosov tomonidan 1962 yili Lyapunovning vektor funktsiyasi usuli yaratilgan bo`lib, A.A.Martinyuk tomonidan 1979 yili Lyapunovning matritsa-funktsiyasi usuli yaratildi. Xar ikkala usulning maqsadi murakkab sistemalar uchun tanlanadigan Lyapunovning skalyar funktsiyasini qurishni qisman bo`lsa xam alogritmlashdan iborat. Bunda qaralayotgan murakkab sistema bir nechta sodda qism sitesmalarga dekompozitsiya qilinadi, so`ngra xar bir qism sistema uchun Lyapunovning skalyar funktsiyasi tuzilib, ular yordamida umumiy sistema uchun Lyapunovning skalyar funktsiyasi tuziladi. Lyapunovning matritsa – funktsiyasi usuli Lyapunovning vektor – funktsiyasi usuliga qaraganda umumiyroq bo`lgani uchun Lyapunov matritsa-funktsiyasi usulini ko`rib chiqamiz.

Bu usulning moxiyati quyidagicha: Avval qaralayotgan sistema dekompozitsiya qilinib, uning erkli qism sistemalari va bu erkin qism sistemalarni o`zaro bog`lovchi funtsiyalar ajiratiladi, ya'ni qaralayotgan sistema

$$\dot{x}_i = f_i(x_i) + f_i^*(x) \qquad i = 1,2,..,s \qquad (1)$$

bu erda

$$x^T=(x_1,x_2,..,x_s),\ x_i \in R^{ni}, \quad x \in R^n,\ n_1+n_2+\ldots+n_s=n$$

ko`rinishga keltiriladi va bu sistemaning $0 \in R^{n_i}$, $i=1,\ldots,s$ xolatlari uchun $N_{ix} \subseteq R^{n_i}$ –ochiq bog`langan atroflar xamda x=0 nuqtaning $N_x \subseteq N_{1x} \times N_{2x} \times \ldots \times N_{sx}$ bog`langan atrofi mavjud bo`lsin deb olamiz.

$$\dot{x}_i = f_i(x_i), \qquad i=1,2,..s \qquad (2)$$

tenglamalar erkin qism sistemalarni, $f_i^*(x)$ fuktsiyalar esa bu erkin qism sistemalar orasidagi bog`lanishlarni ifodalaydi. So`ngra (1) va (2) sistemalar bilan birga quyidagi matritsa funktsiyani qaraymiz.

$$U(x)=\begin{bmatrix} v_{11}(x_1)\ v_{12}(x_1,x_2)\ v_{13}(x_1,x_3)\ldots\ldots\ldots v_{1s}(x_1,x_s) \\ v_{21}(x_1,x_2)\quad v_{22}(x_2)\quad v_{23}(x_2,x_3)\ldots\ldots v_{2s}(x_2,x_s) \\ \ldots\ldots\ldots \quad \ldots\ldots\ldots\ldots \quad \ldots\ldots\ldots\ldots \quad \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ v_{s1}(x_s,x_1)\quad v_{s2}(x_s,x_2)\quad v_{s3}(x_s,x_3)\ \ldots\ldots v_{ss}(x_s) \end{bmatrix} \qquad (3)$$

bu erda $v_{ij}(x_i,x_j)=v_{ji}(x_i,x_j)$ bo`lib, $v_{ii}(x_i)$ funktsiyalar (2) erkin qism sistemalarga qarab tanlanadi. $v_{ij}(x_i,x_j)$ funktsiyalar esa, $f_i^*(x)$ funktsiyalarga qarab shunday tanlanadiki, unda U(x) matritsa funktsiya musbat aniqlanganlik shartlarini qanoatlantiradi.

Endi U(x) matritsa-funktsiya va $\eta=(\eta_1,\eta_2,\ldots,\eta_s)$ o`zgarmas vektor yordamida quyidagi skalyar funktsiyani tuzamiz.

$$V(x)=\eta^T U(x)\eta \qquad (4)$$

Bu skalyar funktsiya musbat aniqlangan bo`lishi uchun U(x) matritsa-funktsiya elementlarini quyidagi shartlarni qanoat lantiradigan qilib tanlaymiz.

$$a)\ v_{ii}(x_i) \geq a_{ii}\|x_i\|^2, \quad \forall(t,x_i) \in \Im_0 \times N_{ix},\ i=1,2,..s \qquad \Im_0=[0,+\infty]$$

(*)

$$b) \quad v_{ij}(x_i, x_j) \geq a_{ij}\|x_i\|\|x_j\|, \qquad \forall(t, x_i, x_j) \in \Im_0 \times N_{ix} \times N_{jx},$$
$$i, j = 1,2,\ldots,s, \; i \neq j$$

Bu shartlar bajarilganda V(x) skalyar funktsiya uchun quyidagi tengsizlik o`rinli bo`ladi.

$$V(x) \geq u^T H^T AHu \qquad (5)$$

bu erda

$$u = (\|x_1\|, \|x_2\|, \ldots, \|x_s\|)^T, \quad H = diag(\eta_1, \eta_2, \ldots, \eta_s), \quad A = (a_{ij})_{i,j=1}^{s} \qquad (5)$$

tengsizlikdan ko`rinadiki,V(x) funktsiya musbat aniqlangan bo`lishi uchun A o`zgarmas matritsa musbat aniqlangan bo`lishi etarli. Shundan so`ng U(x) matritsa-funktsiyaning $v_{ij}(x_i, x_j)$ elementlaridan (1) sistema yordmida xosilalar olib, ularni yuqoridan baxolaymiz. Faraz qilaylik ular quyidagicha baxolangan bo`lsin.

$$a) \quad (D^+_{x_i} v_{ii}) f_i(x) \leq \rho_{1,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ j\neq i}}^{s} \rho_{1,i,j}\|x_i\|\|x_j\|, \;\; \forall(x_i, x_j) \in N_{ix0} \times N_{jx0}, \;\; i, j \in [1, s].$$

$$b) \quad (D^+ v_{ii})^T f_i^*(x) \leq \rho_{2,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ j\neq i}}^{s} \rho_{2,i,j}\|x_i\|\|x_j\|, \quad \forall x_i \in N_{ix0}, \; i \in [1, s],$$

$$c) \quad (D^+_{x_i} v_{ij})^T f_i(x) \leq \rho_{3,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ j\neq i}}^{s} \rho_{3,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{4,j}\|x_j\|^2, \;\; \forall(x_i, x_j) \in N_{ix0} \times N_{jx0}, \; i, j \in [1, s], \; i < j.$$

$$d) \quad (D^+_{x_i} v_{ij})^T f_i^*(x) \leq \rho_{5,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ i\neq j}}^{s} \rho_{4,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{6,j}\|x_j\|^2, \;\; \forall x_i \in N_{ix0}, \; i, j \in [1, s], \; i < j.$$

$$e) \quad (D^+_{x_j} v_{ij})^T f_i(x) \leq \rho_{7,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ j\neq i}}^{s} \rho_{5,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{8,j}\|x_j\|^2, \forall(x_i, x_j) \in N_{ix0} \times N_{jx0}, \; i, j \in [1, s], \; i < j$$

$$f) \quad (D^+_{x_j} v_{ij})^T f_i^*(x) \leq \rho_{9,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1 \\ i\neq j}}^{s} \rho_{6,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{10,j}\|x_j\|^2, \forall x_i \in N_{ix0}, \; i, j \in [1, s], \; i < j.$$

(4) skalyar funktsiyadan (1) sistema yordamida yuqoridagi tengsizliklarni qanoatlantiruvchi xosila uchun quyidagi tengsizlik xosil bo`ladi.

$$\dot{V}(x) \le u^T G u \qquad (6)$$

bu erda

$$G = \{g_{i,j}\}_{i,j=1}^{\overline{s}}, \quad g_{i,j} = g_{i,j}.$$

$$g_{ii} = [\eta_i^2(\rho_{1,i} + \rho_{2,i}) + 2\sum_{\substack{j=1 \\ i<j}}^{s} \eta_i \eta_j (\rho_{3,i} + \rho_{4,j} + \rho_{5,i} + \rho_{6,j} + \rho_{7,i} + \rho_{8,j} + \rho_{9,i} + \rho_{10,j})].$$

$$g_{ij} = \frac{1}{2}\eta_i^2(\rho_{1,i,j} + \rho_{2,i,j}) + \eta_i \eta_j (\rho_{3,i,j} + \rho_{4,i,j} + \rho_{5,i,j} + \rho_{6,i,j})$$

(6) tengsizlikdan ko`rinadiki, $\dot{V}(x)$ xosila manfiy aniqlangan bo`lishi uchun G-o`zgarmas matritsani manfiy aniqlangan bo`lishi etarli.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi teoremani keltiramiz.

Teorema 1. Agar (1) sistema uchun elementlari (*) shartlarni qanoatlantiruvchi U(x) matritsa – funktsiya mavjud bo`lib, quyidagi shartlar bajarilsa

A-matritsa musbat aniqlangan,

G- matritsa yarim manfiy aniqlangan.

U xolda (1) sistemaning x=0 echimi (toyimagan xarakat) turg`un bo`ladi.

2 – bobda Giroskopik stablizatsiya xarakatidagi orbital observatoriya turg`unligini taxlil qilinib , unda sistemaning matematik modeli Lyapunov matritsa funktsiyasini qurish sistema turg`unligining etarli shartlari qarab chiqilgan

Avval qaralayotgan sistemaning matematik modelini quyidagi ko^ rinishga keltirib olamiz

$$
\begin{aligned}
&\mu_2 \dot{x}_1 = S_1 x_2 \\
&\dot{x}_2 = -S_2 x_2 - MAx_3 + m + m_P \\
&\dot{x}_3 = -Hx_3 + MGx_2 + x_4 + m_\alpha \\
&\dot{x}_4 = -Dx_4 + f(\alpha)(N_1 x_1 + N_2 x_2) - N_3 x_3 + r \\
&\dot{\alpha} = x_3
\end{aligned}
\tag{7}
$$

Bu erda S_1, S_2 matritsalar va $\mu_j \quad j = 1,2,..,6$ o`zgarmaslar (2) soxada quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

$$\underline{S}_1 \le S_1 \le \overline{S}_1, \quad \underline{S}_2 \le S_2 \le \overline{S}_2, \qquad \mu_j \in (0,1]$$

$$\underline{S}_1 = \begin{pmatrix} 0 & -1 & 0 \\ -1 & 0 & 0 \\ -1 & 0 & 0 \end{pmatrix}, \quad \overline{S}_1 = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \end{pmatrix}, \quad \underline{S}_2 = \begin{pmatrix} 0 & 0 & \Delta a_1 P_2^* - a_{12} \\ \Delta a_2 P_3^* - a_{23} & 0 & 0 \\ 0 & \Delta a_3 P_1^* - a_{31} & 0 \end{pmatrix}$$

$$\overline{S}_2 = \begin{pmatrix} 0 & a_{13} & \Delta a_1 P_1^* \\ \Delta a_2 P_3^* & 0 & a_{21} \\ a_{32} & \Delta a_3 P_1^* & 0 \end{pmatrix}$$

(7) sistema uchun

$$U(x_1, x_2, x_3, x_4, \alpha, \mu_2, M) = \left[v_{ij}(\cdot)\right], \qquad v_{ij} = v_{ji}, \quad i, j = 1,2,3,\ldots,5 \tag{8}$$

matritsa–funktsiya elementlarini quyidagi ko`rinishda quramiz.

$$
\begin{aligned}
&v_{11}(x_1, \mu_2) = \mu_2 x_1^T B_{11} x_1, && v_{12}(x_1, x_2, \mu_2) = \mu_2 x_1^T B_{12} x_2, \\
&v_{13} = 0, && v_{14}(x_1, x_4, \mu_2, M) = \mu_2 x_1^T B_{14}(Mx_2), \\
&v_{15} = 0, && v_{22}(x_2) = x_2^T B_{22} x_2, \\
&v_{23}(x_2, x_3) = x_2^T B_{23} x_3, && v_{24}(x_2, x_4, M) = x_2^T B_{24}(Mx_4), \\
&v_{25}(x_2, \alpha) = x_2^T B_{25} \alpha, && v_{33}(x_3) = x_3^T B_{33} x_3, \\
&v_{34}(x_{31}, x_{41}, M) = x_3^T B_{34}(Mx_4), && v_{35}(x_3, \alpha) = x_3^T B_{35} \alpha, \\
&v_{44}(x_4, M) = (Mx_4)^T B_{44} x_4, \quad v_{45} = 0, && v_{55}(\alpha) = \alpha^T B_{55} \alpha
\end{aligned}
\tag{9}
$$

Bu erda $B_{ii,}$ i=1,2,3,4,5- musbat aniqlangan simmetrik matritsalar, B_{11}, B_{12}, B_{13},B_{23}, B_{24}, B_{25}, B_{34}, B_{35}-o`zgarmas matritsalar.

(8) matritsa–funktsiya va $\eta = (1,1,1,1,1)^T$ o`zgarmas vektor yordamida quyidagi skalyar funktsiyani tuzamiz.

$$V(x_1, x_2, x_3, x_4, \alpha, \mu_2, M) = \eta^T U(x_1, x_2, x_3, x_4, \alpha, \mu_2, M)\eta \qquad (10)$$

Sistemaning tug^unligi masalasini xal qilish uchun (10) funksiyani quyidan baholab , uni musbat aniqlanganlik shartlarini xosil qilamiz. So^ngra bu funksiyadan (7) sistema yordamida olingan xosilani yuqoridan baholab ,uni manfiy aniqlanganlik shartlarini xosil qilamiz.

3 – bob neyron to`rlar matematik modelining taxliliga bag’ishlangan bo’lib, unda quyidagi chiziqsiz, avtonom oddiy differentsial tenglamani qaraymiz:

$$\dot{x} = -H(x)(-Tx + S(x) - I) \qquad (11)$$

bu erda

$$x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)^T \in (-1,1)^n, \qquad \dot{x} = \frac{dx}{dt},$$

$H(x) - \forall x \in (-1,1)^n$ da aniqlangan $n \times n$ tartibli matritsa funktsiya, $T = (T_{ij})\ n \times n$ o`lchovli o`zgarmas matritsa

$S(x) = (S_1(x_1), \ldots, S_n(x_n))^T$ *bu yerda* $S_1 : (-1,1) \to R, \quad i = \overline{1,n}$

$I = (I_1, .., I_n)^T$ o`zgarmas xaqiqiy vektor.

(1.1) sistema quyidagi ko`rinishda yoziladi.

$$\dot{x}_i = \sum_{j=1}^{S} H_{ij}(x_j)(T_{ij}x_j - S_j(x_j) + I_j) = f_i(x) \qquad (12)$$

bu erda

$H(x) = (H_{ij}(x_j))_{i,j=1}^{S}, \quad H_{ij}(x) - n_i \times n_j$ o`lchovli matritsa funktsiya,

$T = (T_{ij})_{i,j=1}^{S}, \quad T_{ij} - n_i \times n_j$ o`lchovli o`zgarmas matritsa,

$S(x) = (S_1^T(x_1),....,S_s^T(x_s))^T$, $S_i(x) - n_i$ o`lchovli vektor funktsiya,

$I = (I_1^T, I_2^T, ..., I_S^T)^T$, $I_i - n_i$ o`lchovli o`zgarmas vektor,

$x = (x_1^T, x_2^T, ..., x_s^T)^T$, $n_1 + n_2 + n_S = n$

(12) sistemadan erkin qism sistemalarni ajratib olish uchun

$$x^i = (0^T, 0^T, .., x_i^T, ..., 0^T) \in (-1,1)^n$$

belgilashni kiritamiz. U xolda i chi erkin qism sistema quyidagi

$$x_i = -H_{ii}(x^i)(-T_{ii}x_i + S_i(x^i) - I_i) = f_i(x^i) \qquad (13)$$

(bu erda $x_i \in (-1,1)^n$, $n_1 + n_2 + ..n_S = n$) ko`rinishda bo`lib,

$$f_i^*(x) = f_i(x) - f_i(x^i)$$

tenglik bilan aniqlangan $f_i^*(x)$ funktsiya (12) sistemadagi erkin qism sistemalarni o`zaro aloqalarni ifodalaydi. Natijada (12) sistemani quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\dot{x} = f_i(x^i) + f_i^*(x), \quad i = \overline{1,S} \qquad (14)$$

Agar $x = €$ echimning turg`unligini aniqlash kerak bo`lsa, (14) sistemada $x = x - €$ almashtirish qilib, uni x=0 echimga keltirish mumkin ekanligini xisobga olsak, (14) sistemaning x=0 echimini turg`unlik shartlarini xosil qilishning umumiy nazariyasini quramiz. Buning uchun quyidagi farazlarni kiritamiz.

Faraz 1: (14) sistema uchun U(x) matritsa -funktsiya mavjud bo`lib, bu matritsa-funktsiya va $\eta = (\eta_1, \eta_2, ..., \eta_S)^T$ o`zgarmas vektor yordamida tuzilgan V(x) skalyar funktsiya uchun

$$V(x) \geq U^T H^T AHU$$

tengsizlik o`rinli bo`lsin.

Faraz 2: U(x) matritsa-funktsiya elementlaridan (13) va (14) sistemalar bo`yicha olingan xosilalar uchun quyidagi tengsizlik o`rinli bo`ladigan $\rho_{ii}, \quad i=\overline{1,S} \quad va \quad \rho_{ij}, \; i,j=\overline{1,S}, \quad i<j$ o`zgarmaslar mavjud bo`lsin:

$$\sum_{i=1}^{S}\eta_i^2 \left\{D_t^+ v_{ii} + (D_{x_i}^+ v_{ii})^T f_i(x^i) + (D_{x_i}^+ v_{ii})^T f_i^*(x^i)\right\} + 2\sum_{i=1}^{S-1}\sum_{j=2}^{S}\eta_i\eta_j \left\{D_t^+ v_{ij} + (D_{x_i}^+ v_{ij})^T f_i(x^i) + (D_{x_j}^+ v_{ij})^T f_j(x^j) + \right.$$

$$\left. + (D_{x_i}^+ v_{ij})^T f^*(x) + (D_{x_j}^+ v_{ij})^T f_j^*(x)\right\} \le \sum_{i=1}^{S}\rho_{ii}\|x_i\|^2 + 2\sum_{i=1}^{S}\sum_{\substack{j=2\\ j>i}}^{S}\rho_{ij}\|x_i\|\|x_j\|$$

Lemma : Agar faraz 2 dagi shartlar bajarilsa V(x) skalyar funktsiyadan (3.6) sistema yordamida olingan xosila uchun quyidagi tengsizlik o`rinli bo`ladi.

$$D^+ v(x,\eta) \le U^T G U \qquad (15)$$

bu erda $U^T = (\|x_1\|, \|x_2\|, \ldots, \|x_S\|), \quad G = \left[\rho_{ij}\right], \; \rho_{ij} = \rho_{ji}, \; i,j=\overline{1,S}.$

Teorema 2: Agar (14) sistema uchun faraz 1 va faraz 2 dagi shartlar bajarilib, A matritsa musbat aniqlangan , G matritsa manfiy aniqlangan bo`lsa, u xolda bu sistemaning x=0 echimi asimptotik turg`un bo`ladi.

1-BOB

YIRIK MASSHTABLI SISTEMALAR TURG'UNLIGINING UMUMIY MASALASI.

Ko'plab jarayonlar yirik mastabli sistemalar (Y.M.S.) orqali modellashtiriladi. Bunday sistemalarning xarakterli belgilari quyidagilardir:

2. Ko'p o'lchovlilik;

2.Sistema strukturasining ko'p karraliligi (to'rlar, daraxtlar,ierarxik strukturalar va boshqalar);

3.Sistema elementlarining ko'p bog'lamliligi (qism sistemalar orasidagi bitta darajadagi va xar xil darajali ierarxiyalar orasidagi bog'lanishlar);

4.Elementlari tabiatining ko'pxilliligi (mashinalar, avtomatlar, robotlar, odam-operatorlar);

5.Sistema xolati va tarkibi o'zgarishining ko'pkarraliligi (sistema strukturasi, tarkibi va bog'lanishlarning o'zgaruvchanligi);

6.Sistemaning ko'p kriteriyaliligi (qism sistemalar uchun har-xil lokal kriteriyalar va to'la sistema uchun global kriteriyalar, ularning qarama-qarshililigi).

7.Sistema yoki uning elementlari tabiatiga xos bo'lgan ba'zi bir xususiy belgilar.

Bu belgilar sistema dinamik xossalarini (turg'unlik, boshqaruvchanlik, kuzatuvchanlik, optimallik) o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. SHuning uchun ko'plab mutaxassis olimlar tomonidan bir qancha usullar yaratildi. Jumladan, Lyapunov vektor funktsiyasi usuli , mini – maks usuli , Lyapunov matritsa – funktsiyasi usuli va boshqalar. Biz bu bobda Lyapunov matritsa – funktsiyasi usulini qarab chiqamiz.

§1.1. Masalaning qo'yilishi

Ma'lumki, Lyapunov funktsiyasini qurishning umumiy algaritmi mavjud bo'lmaganligi uchun yuqoridagi xarakterli belgilarga ega bo'lgan sistemalar turg'unligini taxlili qilishda xosil bo'ladigan qiyinchiliklar Lyapunovning to'g'ri usulini effektiv ravishda qo'llash imkonini bermaydi.

Shuning uchun qaralayotgan sistemani soddalashtirish yoki boshqa sistema bilan almashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha yo'nalishlar paydo bo'lib, bularda turg'unlik (turg'unmaslik) masalasi bevosita berilgan sistemani tekshirish yo'li bilan emas, balki bu oralik sistemalarni tekshirish yo'li bilan xal etiladi.

Yirik masshtabli sistemalar turg'unligining umumiy masalasi quyidagicha ikki xil ko'rinishda qo'yiladi.

A muammo: Y.M.S. o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalarga dekompazitsiya qilingan (ajratilgan) bo'lsin. Shunday shartlarni aniqlashimiz kerakki, bularda sistemaning Lyapunov bo'yicha turg'unligi o'zaro bog'liq bo'lmagan qism sistemalarning turg'unligidan va ular orasidagi bog'lanishlarning xossalaridan kelib chiqsin. Boshqacha aytganda, masalani bunday qo'yilishida, avval Y.M.S. ni tashkil qiluvchi har bir erkin qism sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tuzilib, ularni turg'unligi (turg'unmasligi)ning yetarli shartlari xosil qilinadi. So'ngra bu qism sistemalar orasidagi bog'lanishlarning xossalaridan va erki n qism sistemalar turg'unligining yetarli shartlaridan foydalanib, berilgan sistema turg'unligining yetarli shartlari xosil qilinadi.

B muammo: Y.M.S. o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalarga dekompazitsiya qilingan (ajratilgan) bo'lsin. Sistema tartibi pasayishini taminlaydigan shunday shartlarni aniqlashimiz kerakki, unda qaralayotgan sistemaning turg'unligi o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalar xossalaridan kelib chiqib, bunda erkin qism sistemalar turg'unligi xaqidagi ma'lumotlardan foydalanilmaydi. Boshqacha aytganda masalaning bunday qo'yilishida, har bir qism sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tanlanib, ular yordamida qaralayotgan sistema uchun Lyapunov funktsiyasi tuziladi va qaralayotgan sistema turg'unligining yetarli shartlari xosil qilinadi.

Bu ko'rsatilgan muammolar Y.M.S. turg'unligini tekshirish bilan shug'ulanuvchi mutaxassislar uchun bosh yo'nalishlarni aniqlab berdi. Ularni xal etish yo'lida bir qancha matematik usullar yaratildi yoki rivojlantirildi. Jumladan, Lyapunovning vektor-funktsiyasi usuli, vektorli normalar usuli, minimaksli usul, Lyapunov matritsa funktsiyasi usuli va boshqalar.

§1.2. Yirik masshtabli sistemalarning dekompozitsiyasi.

Faraz qilaylik (S). Y.M.S. xolati quyidagi differentsial tenglama bilan ifodalansin.

$$\frac{dx}{dt} = f(t, x), \tag{1.1}$$

bu yerda $t \in T = [t_0, \quad \infty) \subset R, \qquad x \in R^n, f \in F$ bo'lib, F oila quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \{f^1, f^2, \dots, f^N\}, f^k: TxR^n \to \mathbf{R}^n, \tag{1.2}$$

N-haqiqiy son.

Agar (S). Y.M.S. s ta qism sistemalardan tashkil topgan bo'lsa, u xolda (S). Y.M.S.ni ($S_i i$) o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalardan tashkil topgan deb qarash mumkin bo'lib, ($S_i i$) o'zaro bog'liq bo'lgan qism sistemalar quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$\forall i = 1,2, \dots, s \tag{1.3}$$

bu yerda x va f vektorlar quyidagicha aniqlanadi:

$$x = (x_1^T, x_2^T, \dots, x_s^T)^T, \qquad f = (f_1^T, f_2^T, \dots, f_s^T)^T,$$

shuningdek,

$$f_i \in F_i, \qquad F_i = (f_i^1, \qquad f_i^2, \dots, \qquad f_i^N), \qquad f_i^k : \mathrm{T}x R^n \to R^{n_i},$$

$$\forall\, k = 1,2,\dots,N, \qquad n_1 + n_2 + \cdots n_s = n, \qquad i = 1,2,\dots,s.$$

$\mathbf{f}_i$ funktsiyalar barcha $t \in R$ da, faqat va faqat x=0 dagina

$$f(t,x)=0$$

shartni qanoatlantiradi.

$$x^i = (O^T, O^T, \dots, x_i^T, O^T, \dots, O^T)^T, \qquad i = 1,2,\dots,s$$

belgilash kiritamiz,

$$g_i : \mathrm{T}x R^{n_i} \to R^{n_i},$$

funktsiyani

$$g_i(t,x_i) = f_i(t,x^i)$$

tenglik bilan aniqlaymiz.

U xolda $[(\hat{S}]_i)$ i- erkin qism sistema

(1.4)

bu yerda $x_i \in R^{n_i}$,

$$f_i^*(t,x) = f_i(t,x) - g_i(t,x_i), \qquad \forall\, i = 1,2,\dots,s \qquad (1.5)$$

ifoda yordamida aniqlangan f_i^* funktsiya (S) sistemani o'zining $[(S]_i)$ i- qism sistemasiga ta'sirini ifodalaydi.

(1.4) va (1.5) ga asosan (1.3) ni quyidagicha yozish mumkin:

(1.6)

Agar

$$g=(g_1^T, g_2^T, \dots, g_S^T)^T, \qquad f^{\bullet}=(f_1^{\bullet T}, f_2^{\bullet T}, \dots, f_S^{\bullet T})^T,$$

deb olsak, (1.6) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{dx}{dt}=g(t,x)+f^{\bullet}(t,x), \tag{1.7}$$

(S) Y.M.S. ni (1.6) ko'rinishda dekompozitsiya qilish nazariy bo'lib, amaliy tadbiqlarda bu bir muncha noqulaydir. Masalan (1.5) tenglik yordamida $f_i^{\bullet}$ funktsiyalarni har doim ham aniqlash qulay bo'lavermaydi. SHuning uchun (S) Y.M.S. ni dekompozitsiya qilishni qulaylashtirish maqsadida har bir s ta $\left([\hat{S}]_i\right)$ qism sistemalardan iborat bo'lgan Y.M.S. bilan sxs tartibli matritsa o'rtasida quyidagicha o'zaro bir qiymatli mosli o'rnatamiz:

1. (S) Y.M.S.ning $\left([\hat{S}]_i\right)$ erkin qism sistemalarini matritsaning bosh dioganaliga mos qo'yamiz;

2. qism sistemalarni $\left([\hat{S}]_j\right)$ qism sistemaga ta'sirini ifodalovchi funktsiyani i-satr va j-ustun kesishgan joyga mos qo'yamiz. Natijada matritsaning bosh dioganalida erkin qism sistemalar bo'lib, bosh dioganaldan tashqarida bu erkin qism sistemalar orasidagi to'g'ri va teskari bog'lanishlar bo'ladi.

Bunday moslik o'rnatilgandan keyin (1.1) sistema quyidagi ko'rishlarning biriga keladi:

$$\frac{dx}{dt}=Ax, \tag{1.8}$$

$$\frac{dx}{dt}=A(t)x, \tag{1.9}$$

$$\frac{dx}{dt}=A(x), \tag{1.10}$$

$$\frac{dx}{dt}=A(t,x), \tag{1.11}$$

bu yerda A, A(t), A(x), A(t,x) - bosh dioganalga nisbatan simmetrik bo'lgan sxs tartibli kvadrat matritsalar.

(1.8), (1.9), (1.10), (1.11) sistemalarni dekompozitsiya qilish masalasi mos ravishda A, A(t), A(x), A(t,x)-matritsalarni blok matritsalarga ajratish masalasi bilan teng kuchli bo'lgani uchun (S) Y.M.S.ni dekompozitsiya qilish masalasi matritsani blok matritsalarga ajratish masalasiga keladi.

Misol tariqasida (1.8) sistemani ba'zi xususiy xollarda dekompazitsiya qilish usullarini qarab chiqamiz. Faraz qilaylik, A matritsa markazga nisbattan simmetrik bo'lgan sxs o'lchovli kvadrat matritsa bo'lsin. U xolda (1.8) sistemani quyidagicha usullarda dekompaziya qilish mumkin:

1.Vertikal va gorizantal simmetriya o'qlariga nisbatan dekompazitsiya qilish. Bu xolda (1.8) sistema n=2k da,

$$\begin{aligned} \dot{y} &= A_1 y + B_1 z, \\ \dot{z} &= B_1^0 y + A_1^0 z, \end{aligned} \tag{1.12}$$

ko'rinishga , n=2k+1 da esa

$$\begin{aligned} \dot{y} &= A_1 y + a_2 x_{k+1} + B_1 z, \\ \dot{x}_{k+1} &= a_1^T y + a_{k+1,k+1} x_{k+1} + (a_1^T)^0 z \\ \dot{z} &= B_1^0 y + a_2^0 x_{k+1} + A_1^0 z, \end{aligned} \tag{1.13}$$

ko'rinishga keladi. Bu yerda erkin qism sistemalar

$$\dot{y} = A_1 y, \tag{1.14}$$

$$\dot{z} = A_1^0 z, \tag{1.15}$$

$$\dot{x}_{k+1} = a_{k+1,k+1} x_{k+1}. \tag{1.16}$$

ko'rinishlarda bo'lib, A_1, B_1- k-tartibli kvadrat matritsalar, A_1^0, B_1^0 -mos ravishda ularni markazga nisbatan transponirlangani [21], vektorlar esa

$$a_1 = (a_{k+1,1}, a_{k+1,2}, ..., a_{k+1,k})^T,\ a_2 = (a_{k+1,k+2}, a_{k+1,k+3}, ..., a_{k+1,n})^T,$$

$$y = (x_1, x_2, ..., x_k)^T,\ z = (x_{k+2}, x_{k+3}, ..., x_n)^T,\ x = (y^T, x_{k+1}, z^T)^T.$$

ko'rinishda aniqlangan.

(1.8) sistema muvozanat xolati turg'unligining yetarli shartlarini xosil qilish uchun, (1.12) sistema va (1.14), (1.15) qism sistemalarga mos Lyapunov matritsa funktsiyasi quyidagi ko'rinishda tanlanadi:

$$U_1(y,z)=\begin{pmatrix} v_{11}(y) & v_{12}(y,z) \\ v_{21}(y,z) & v_{22}(z)\end{pmatrix},\quad v_{12}=v_{21}\ , \tag{1.17}$$

bu yerda

$$v_{11}(y)=y^T P_1 y,\ \ v_{22}(z)=z^T P_1^0 z,\ \ v_{12}(y,z)=v_{21}(y,z)=y^T P_2 z,$$

$P_1,\ P_1^0$ - bosh dioganalga nisbatan simmetrik bo'lgan musbat aniqlangan matritsalar, P_2 - o'zgarmas matritsa bo'lib, bularning barchasi k-tartibli matritsalardir.

(1.13)sistema va (1.14), (1.15), (1.16) qism sistemalarga mos Lyapunov matritsa funktsiyasi esa, quyidagicha tanlanadi.

$$U_2(y,x_{k+1},z)=(v'_{ij}),\quad i,j=1,2,3,\quad v'_{ij}=v'_{ji} \tag{1.18}$$

bu yerda

$$v'_{11}=v_{11}(y),\ \ v'_{12}=\alpha_{12}x_{k+1}y,\ \ v'_{13}=v_{12}(y,z),\ \ v'_{21}=v'_{12},\quad v'_{22}=\alpha_{22}x_{k+1}^2,$$

$$v'_{23}=\alpha_{23}x_{k+1}z\ ,\ \ v'_{33}=v_{22}(z),\ \ v'_{31}=v'_{13}, v'_{32}=v'_{23}\quad ,$$

$P_1, P_1^0,\ P_2$ -matritsalar (1.17) dagidek aniqlanadi, $\alpha_{22}>0,\ \alpha_{12},\alpha_{23}$ -lar xaqiqiy sonlar

2.O'zaro muvozanatlashuvchi qism sistemalarga nisbatan dekompazitsiya qilish. Bu xolda (1.8) sistema n=2k da

$$\dot{y}_i=A_{ii}y_i+\sum_{\substack{j=1\\ i\neq j}}^{k}A_{ij}y_j,\quad i=1,2,\ldots,k=\frac{n}{2} \tag{1.19}$$

ko'rinishga, n=2k+1 da esa,

$$\begin{aligned} &\dot{y}_i=A_{ii}y_i+\sum_{\substack{j=1\\ i\neq j}}^{k}A_{ij}y_j+a_i x_{k+1},\quad i=1,2,\ldots,k=\frac{n-1}{2}, \\ &\dot{x}_{k+1}=a_{k+1,k+1}x_{k+1}+\sum_{i=1}^{k}a_i y_i, \end{aligned} \tag{1.20}$$

ko'rinishga keladi. Bu yerda

$$A_{ii}=\begin{pmatrix} a_{ii} & a_{i,n+1-i} \\ a_{i,n+1-i} & a_{ii} \end{pmatrix}, \qquad A_{ij}=\begin{pmatrix} a_{ij} & a_{i,n+1-j} \\ a_{i,n+1-j} & a_{ij} \end{pmatrix},$$

$$a_i=(a_{i,k+1},a_{i,k+1})^T, \qquad a_j=(a_{k+1,j},a_{k+1,j})^T,$$

$$y_i=(x_i,x_{n+1-i})^T, \qquad y=(y_1^T,y_2^T,\ldots,y_k^T)^T,\ i,j=1,2,\ldots,k,\ i\neq j,$$

bo'lib, A_{ii} va A_{ij} lar matritsa markaziga nisbatan simmetrik bo'lgan matritsalardir. Bu xolda i- erkin qism sistemalar

$$\dot{y}_i=A_{ii}y_i \tag{1.21}$$

ko'rinishda bo'lib, ularning muvozanat xolati turg'unligini yetarli shartlari

$$a_{ii}<0,\ |a_{ii}|>|a_{i,n+1-i}|,\ i=1,2,\ldots,k \tag{1.22}$$

shartlardan,

$$\dot{x}_{k+1}=a_{k+1,k+1}x_{k+1} \tag{1.23}$$

qism sistema uchun muvozanat xolat turg'unligining yetarli sharti

$$a_{k+1,k+1}<0. \tag{1.24}$$

dan iborat bo'ladi. (1.19) va (1.20) sistemalar, hamda (1.21), (1.23) qism sistemalar uchun yuqoridagi kabi Lyapunov matritsa funktsiyalarini tuzish mumkin.

§ 2.3 Lyapunovning matritsa-funktsiyasi usuli

Lyapunovdan keyin olimlar (N.G.Chetaev, I.G.Malkin, N.N.Krasovskiy, V.M.Matrosov, A.A.Martinyuk va boshqalar) tomonidan Lyapunovning to`g`ri usuli rivojlantirildi va takomillashtirildi. Jumladan, V.M.Matrosov tomonidan 1962 yili Lyapunovning vektor funktsiyasi usuli yaratilgan bo`lib, A.A.Martinyuk tomonidan 1979 yili Lyapunovning matritsa-funktsiyasi usuli yaratildi.

Ma'lumki, Lyapunov funktsiyasini qurish algoritmi mavjud emas, bu xol murakkab sistemalar uchun Lyapunov funktsiyasini tanlashni qiyinlashtiradi.

Sodda sistemalar uchun bunday qiyinchilik bo`lmaydi. Yuqorida aytilgan xar ikkala usulning maqsadi murakkab sistemalar uchun tanlanadigan Lyapunovning skalyar funktsiyasini qurishni qisman bo`lsa xam alogritmlashdan iborat. Bunda qaralayotgan murakkab sistema bir nechta sodda qism sitesmalarga dekompozitsiya qilinadi, so`ngra xar bir qism sistema uchun Lyapunovning skalyar funktsiyasi tuzilib, ular yordamida umumiy sistema uchun Lyapunovning skalyar funktsiyasi tuziladi. Lyapunovning matritsa – funktsiyasi usuli Lyapunovning vektor – funktsiyasi usuliga qaraganda umumiyroq bo`lgani uchun Lyapunov matritsa-funktsiyasi usulini ko`rib chiqamiz.

Bu usulning moxiyati quyidagicha: Avval qaralayotgan sistema dekompozitsiya qilinib, uning erkli qism sistemalari va bu erkin qism sistemalarni o`zaro bog`lovchi funtsiyalar ajiratiladi, ya'ni qaralayotgan sistema

$$\dot{x}_i = f_i(x_i) + f_i^*(x) \qquad i = 1,2,..,s \qquad (1.25)$$

bu erda

$$x^T = (x_1, x_2, .., x_s), \ x_i \in R^{ni}, \quad x \in R^n, n_1 + n_2 + ... + n_s = n$$

ko`rinishga keltiriladi va bu sistemaning $0 \in R^{n_i}, \ i = 1,...,s$ xolatlari uchun $N_{ix} \subseteq R^{n_i}$ –ochiq bog`langan atroflar xamda x=0 nuqtaning $N_x \subseteq N_{1x} \times N_{2x} \times ... \times N_{sx}$ bog`langan atrofi mavjud bo`lsin deb olamiz.

$$\dot{x}_i = f_i(x_i), \qquad i = 1,2,..s \qquad (1.26)$$

tenglamalar erkin qism sistemalarni, $f_i^*(x)$ fuktsiyalar esa bu erkin qism sistemalar orasidagi bog`lanishlarni ifodalaydi. So`ngra (1.25) va (1.26) sistemalar bilan birga quyidagi matritsa funktsiyani qaraymiz.

$$U(x) = \begin{bmatrix} v_{11}(x_1) \ v_{12}(x_1, x_2) \ v_{13}(x_1, x_3) .... v_{1s}(x_1, x_s) \\ v_{21}(x_1, x_2) \quad v_{22}(x_2) \quad v_{23}(x_2, x_3) ..... v_{2s}(x_2, x_s) \\ .... \quad .... \quad .... \quad .... \\ v_{s1}(x_s, x_1) \quad v_{s2}(x_s, x_2) \quad v_{s3}(x_s, x_3) \ .... v_{ss}(x_s) \end{bmatrix} \qquad (1.27)$$

bu erda $v_{ij}(x_i,x_j)=v_{ji}(x_i,x_j)$ bo`lib, $v_{ii}(x_i)$ funktsiyalar (1.26) erkin qism sistemalarga qarab tanlanadi. $v_{ij}(x_i,x_j)$ funktsiyalar esa, $f_i^*(x)$ funktsiyalarga qarab shunday tanlanadiki, unda U(x) matritsa funktsiya musbat aniqlanganlik shartlarini qanoatlantiradi.

Endi U(x) matritsa-funktsiya va $\eta=(\eta_1,\eta_2,\ldots,\eta_s)$ o`zgarmas vektor yordamida quyidagi skalyar funktsiyani tuzamiz.

$$V(x)=\eta^T U(x)\eta \qquad (1.28)$$

Bu skalyar funktsiya musbat aniqlangan bo`lishi uchun U(x) matritsa-funktsiya elementlarini quyidagi shartlarni qanoat lantiradigan qilib tanlaymiz.

$$a)\ \ v_{ii}(x_i)\geq a_{ii}\|x_i\|^2,\ \ \forall(t,x_i)\in\Im_0\times N_{ix},\ i=1,2,..s \qquad \Im_0=[0,+\infty]$$

(*)

$$b)\quad v_{ij}(x_i,x_j)\geq a_{ij}\|x_i\|\|x_j\|,\qquad \forall(t,x_i,x_j)\in\Im_0\times N_{ix}\times N_{jx},$$
$$i,j=1,2,\ldots,s,\ i\neq j$$

Bu shartlar bajarilganda V(x) skalyar funktsiya uchun quyidagi tengsizlik o`rinli bo`ladi.

$$V(x)\geq u^T H^T AHu \qquad (1.29)$$

bu erda

$$u=(\|x_1\|,\|x_2\|,\ldots,\|x_s\|)^T,\quad H=diag(\eta_1,\eta_2,\ldots,\eta_s),\quad A=\{a_{ij}\}_{i,j=1}^{s} \qquad (1.29)$$

tengsizlikdan ko`rinadiki,V(x) funktsiya musbat aniqlangan bo`lishi uchun A o`zgarmas matritsa musbat aniqlangan bo`lishi etarli. Shundan so`ng U(x) matritsa-funktsiyaning $v_{ij}(x_i,x_j)$ elementlaridan (1.25) sistema yordmida xosilalar olib, ularni yuqoridan baxolaymiz. Faraz qilaylik ular quyidagicha baxolangan bo`lsin.

$$a)\quad (D^{+}_{x_i} v_{ii}) f_i(x) \le \rho_{1,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ j\ne i}}^{s} \rho_{1,i,j}\|x_i\|\|x_j\|,\quad \forall (x_i, x_j) \in N_{ix0}\times N_{jx0},\quad i, j\in[1,s].$$

$$b)\quad (D^{+} v_{ii})^T\ f_i^{*}(x) \le \rho_{2,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ j\ne i}}^{s} \rho_{2,i,j}\|x_i\|\|x_j\|,\quad \forall x_i \in N_{ix0},\ i\in[1,s],$$

$$c)\quad (D^{+}_{x_i} v_{ij})^T\ f_i(x) \le \rho_{3,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ j\ne i}}^{s} \rho_{3,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{4,j}\|x_j\|^2,\ \ \forall (x_i, x_j)\in N_{ix0}\times N_{jx0},\ i, j\in[1,s],\ i<j.$$

$$d)\quad (D^{+}_{x_i} v_{ij})^T\ f_i^{*}(x) \le \rho_{5,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ i\ne j}}^{s} \rho_{4,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{6,j}\|x_j\|^2,\ \ \forall x_i \in N_{ix0},\ i, j\in[1,s],\ i<j.$$

$$e)\quad (D^{+}_{x_j} v_{ij})^T\ f_i(x) \le \rho_{7,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ j\ne i}}^{s} \rho_{5,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{8,j}\|x_j\|^2,\ \forall (x_i, x_j)\in N_{ix0}\times N_{jx0},\ i, j\in[1,s],\ i<j$$

$$f)\quad (D^{+}_{x_j} v_{ij})^T\ f_i^{*}(x) \le \rho_{9,i}\|x_i\|^2 + \sum_{\substack{j=1\\ i\ne j}}^{s} \rho_{6,i,j}\|x_i\|\|x_j\| + \rho_{10,j}\|x_j\|^2,\ \forall x_i \in N_{ix0},\ i, j\in[1,s],\ i<j.$$

(1,28) skalyar funktsiyadan (1,25) sistema yordamida yuqoridagi tengsizliklarni qanoatlantiruvchi xosila uchun quyidagi tengsizlik xosil bo`ladi.

$$\dot{V}(x) \le u^T G u \qquad (1.30)$$

bu erda

$$G = [g_{i,j}]_{i,j=1}^{s},\qquad g_{i,j} = g_{i,j}.$$

$$g_{ii} = [\eta_i^2(\rho_{1,i}+\rho_{2,i}) + 2\sum_{\substack{j=1\\ i<j}}^{s}\eta_i\eta_j(\rho_{3,i}+\rho_{4,j}+\rho_{5,i}+\rho_{6,j}+\rho_{7,i}+\rho_{8,j}+\rho_{9,i}+\rho_{10,j})].$$

$$g_{ij} = \frac{1}{2}\eta_i^2(\rho_{1,i,j}+\rho_{2,i,j}) + \eta_i\eta_j(\rho_{3,i,j}+\rho_{4,i,j}+\rho_{5,i,j}+\rho_{6,i,j})$$

(1.30) tengsizlikdan ko`rinadiki, $\dot{V}(x)$ xosila manfiy aniqlangan bo`lishi uchun G-o`zgarmas matritsani manfiy aniqlangan bo`lishi etarli.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi teoremani keltiramiz.

Teorema 1.1. Agar (1.25) sistema uchun elementlari (*) shartlarni qanoatlantiruvchi U(x) matritsa – funktsiya mavjud bo`lib, quyidagi shartlar bajarilsa A-matritsa musbat aniqlangan. G- matritsa yarim manfiy aniqlangan.

U xolda (1.25) sistemaning x=0 echimi (toyimagan xarakat) turg`un bo`ladi.

Isbot: $\eta^T = (\eta_1, \eta_2, ..., \eta_s)$ vektor yordamida (1,27) matritsa–funktsiyadan (1,29) tengsizlikni qanoatlantiruvchi (1,28) skalyar funktsiyani tuzamiz. Bu skalyar funktsiya xosilasi uchun (1,30) baxolashni xosil qilamiz. (1,29) tengsizlikdan va A matritsaning musbat aniqlanganligidan (1,28) funktsiyaning musbat aniqlanganligi xosil bo`ladi, (1,30) baxolashdan va G matritsaning yarim manfiy aniqlanganligidan esa (1,29) skalyar funktsiyadan (1,25) sistema yordamida olingan xosila manfiy aniqlangan yoki aynan nolga teng bo`ladi. Bu shartlar esa sistema muvozanat xolatining turg`un bo`lishi uchun etarli.

Teorema 1.2. Agar (1.25) sistema uchun elementlari (∗) shartlarni qanoatlantiruvchi U(x) matritsa – funktsiya mavjud bo`lib, quyidagi shartlar bajarilsa

A-matritsa musbat aniqlangan.

G- matritsa manfiy aniqlangan.

U xolda (1.25) sistemaning x=0 echimi (toyimagan xarakat) asimptotik turg`un bo`ladi.

Isbot: $\eta^T = (\eta_1, \eta_2, ..., \eta_s)$ vektor yordamida (1,27) matritsa–funktsiyadan (1,29) tengsizlikni qanoatlantiruvchi (1,28) skalyar funktsiyani tuzamiz. Bu skalyar funktsiya xosilasi uchun (1,30) baxolashni xosil qilamiz. (1,29) tengsizlikdan va A matritsaning musbat aniqlanganligidan (1,28) funktsiyaning musbat aniqlanganligi xosil bo`ladi, (1,30) baxolashdan va G matritsaning manfiy aniqlanganligidan esa (1,29) skalyar funktsiyadan (1,25) sistema yordamida olingan xosila manfiy aniqlangan bo`ladi. Bu shartlar esa sistema muvozanat xolatining asimptotik turg`un bo`lishi uchun etarli.

Misol 1.1.

Ikkinchi tartibli ikkita qism sistemalardan tuzilgan to`rtinchi tartibli sistemani qaraymiz.

$$\frac{dx_1}{dt}=\begin{pmatrix}-1 & 0{,}5\\ -0{,}5 & -2\end{pmatrix}x_1+\begin{pmatrix}0{,}5 & 1\\ -1 & 0{,}5\end{pmatrix}x_2$$

$$\frac{dx_2}{dt}=\begin{pmatrix}-2 & -1\\ 0{,}5 & -3\end{pmatrix}x_2+\begin{pmatrix}0{,}1 & -1\\ 1 & 0{,}1\end{pmatrix}x_1,\quad x_i\in R^2,\ i=1{,}2$$

Berilgan sistema uchun elementlari quyidagicha bo`lgan matritsa-funktsiyani tuzamiz.

$$v_{ii}(x_i)=x_i^T diag\ \{2{,}2\}x_i,\ i=1{,}2,\quad v_{12}=(x_1,x_2)=v_{21}(x_2,x_1)=x_i^T diag\ \{0{,}1{,}0{,}1\}x_2$$

Bu funktsiya uchun quyidagilar o`rinli bo`ladi.

$$v_{ii}(x_i)\geq 2\|x_i\|^2\quad \forall x_i\in N_{ix_0},\ i=1{,}2;\quad v_{12}(x_1,x_2)\geq -0{,}1\|x_1\|\|x_2\|\quad \forall(x_1,x_2)\in N_{1x_0}\times N_{2x_0}$$

Agar $\eta^T=(1{,}1)$ bo`lsa, u xolda A matritsaning ko`rinishi

$$A=\begin{pmatrix}2 & -0{,}1\\ -0{,}1 & 2\end{pmatrix}$$

kabi bo`lib, u musbat aniqlangan bo`ladi. G matritsa elementlari esa

$$g_{11}=-2,\quad g_{22}=-3{,}59,\quad g_{12}=0{,}214$$

ko`rinishida bo`ladi. G matritsaning bundek elementlaridan quyidagiga ega bo`lamiz.

$$G=\begin{pmatrix}-2 & 0{,}214\\ 0{,}214 & -3{,}59\end{pmatrix}$$

G matritsa manfiy aniqlanganligidan sistemaning x=0 muvozanat xolati asimptotik turg`un bo`ladi.

Misol 1.2.. Quyidagi yirik masshtabli sistemani qaraymiz

$$\frac{dx}{dt} = A_1 x + A_2 y + A_3 z$$
$$\frac{dy}{dt} = B_1 x + B_2 y + B_3 z$$
$$\frac{dz}{dt} = C_1 x + C_2 y + C_3 z$$

bu erda $x \in R^{n_1}$, $y \in R^{n_2}$, $z \in R^{n_3}$, $n_1 + n_2 + n_3 = n$, $A_1, A_2, A_3, B_1, B_2, B_3, C_1, C_2, C_3$ – o`zgarmas matritsalar. Bu sistemaga mos erkin qism sistemalar quyidagicha bo`ladi

$$\frac{dx}{dt} = A_1 x$$
$$\frac{dy}{dt} = B_2 y$$
$$\frac{dz}{dt} = C_3 z$$

Elementlari quyidagi ko`rinishda bo`lgan

$$U(z, y, z) = [v_{ij}(\cdot)],\ i, j = 1,2,3$$

matritsa funktsiyani tuzamiz

$$\begin{aligned} &v_{11}(x) = x^T P_{11} x,\ \ v_{22}(x) = y^T P_{22} y,\ \ v_{33}(x) = z^T P_{33} z,\ v_{12}(x,y) = v_{21}(x,y) = x^T P_{12} y, \\ &v_{13}(x,z) = v_{31}(x,z) = x^T P_{13} z,\ v_{23}(y,z) = v_{32}(y,z) = y^T P_{23} z \end{aligned} \tag{$*$}$$

bu erda P_{ii}, $i = 1,2,3$ – musbat aniqlangan simmetrik matritsa,

P_{12}, P_{13}, P_{23} – o`zgarmas matritsalar.

$(*)$ funktsiyalar uchun quyidagilar o`rinli bo`ladi.

$$\begin{aligned} &v_{11}(x) \ge \lambda_m(P_{11})\|x\|^2,\ \forall x \in N_{x0},\ N_{x0} = \{x \in N_x, x \ne 0\}, \\ &v_{22}(y) \ge \lambda_m(P_{22})\|y\|^2,\ \forall y \in N_{y0},\ N_{y0} = \{y \in N_y, y \ne 0\}, \\ &v_{33}(z) \ge \lambda_m(P_{33})\|z\|^2,\ \forall z \in N_{z0},\ N_{z0} = \{z \in N_z, z \ne 0\}, \\ &v_{12}(x,y) \ge -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{12}P_{12}^T)\|x\|\|y\|,\ \forall (x,y) \in N_{x0} \times N_{y0}, \\ &v_{13}(x,z) \ge -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{13}P_{13}^T)\|x\|\|z\|,\ \forall (x,z) \in N_{x0} \times N_{z0}, \\ &v_{23}(y,z) \ge -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{23}P_{23}^T)\|y\|\|z\|,\ \forall (y,z) \in N_{y0} \times N_{z0}, \end{aligned}$$

bu erda $\lambda_m(P_{ii}) - P_{ii}$ matritsaning minimal xos qiymati, i=1,2,3.

$\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{12}P_{12}^T), \lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{13}P_{13}^T)$, $\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{23}P_{23}^T) - P_{12}, P_{13}, P_{23}$ matritsalarning normalari. $U(x,y,z)$ matritsa funktsiya va $\eta \in R^3$, $\eta_i > 0$, $i = 1,2,3$ o`zgarmas vektordan foydalanib quyidagi skalyar funktsiyani tuzamiz.

$$V(x,y,z) = \eta^T U(x,y,z)\eta$$

Bu skalyar funktsiya uchun quyidagi baxolash o`rinli bo`ladi.

$$V(x,y,z) \geq u^T H^T P H u$$

bu erda $u^T = (\|x\|, \|y\|, \|z\|)$, $H^T = H = diag(\eta_1, \eta_2, \eta_3)$

$$P = \begin{bmatrix} \lambda_m(P_{11}) & -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{12}P_{12}^T) & -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{13}P_{13}^T) \\ -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{12}P_{12}^T) & \lambda_m(P_{22}) & -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{23}P_{23}^T) \\ -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{13}P_{13}^T) & -\lambda_M^{\frac{1}{2}}(P_{23}P_{23}^T) & \lambda_m(P_{33}) \end{bmatrix}$$

